

Uch avlod jurnalistlari jamlandi



Uch avlod jurnalistlari jamlandi

Surxondaryo viloyatida o'ziga xos jurnalistika tajribasi shakllangan bo'lib, Tesha Saydalaev, Mengziyo Safarov, Rahmatulla Abduraxmonov, Geldimurod Saidmalikov, Maxmud Abdulfoyrov, Jamila Ergasheva, Soatmurod Jo'raqulov, Davron G'ulomov kabi ustunlari yosh avlodga o'rnak bo'lib kelmoqda. Ularning faoliyati bilan yoshlarni tanishtirish maqsadida Termiz shahridagi Matbuot uyida uch avlod uchrashuvi tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi va O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi viloyat bo'limi hamkorligida tashkil qilgan tadbirga bir guruh ijodkorlar ishtirok etdi. Unda uyushma a'zolari bo'lgan To'ra Qobilov, Tojigul Davronova, Abdulla Xolmirzaev, Annaqul Shaymardonov va Yoqub Norboev faoliyati haqida yosh jurnalistlarga so'zlab berdi va marxum ustozlarni xotirlashdi. Keksa jurnalistlarimizning shogirdlari bo'lgan Chori Jumaqulov, M.Abdurahmonov, Ilxom Raxmatov fikrlarini ham aytib o'tdi.

